

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Turgunova Faridaxon Maxammadjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti doktranti

E-mail: tfm_83@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati, kompyuter texnikasi vositalari va dasturlaridan foydalanish orqali talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchi va ta‘lim oluvchi orasidagi o‘zaro faol muloqotni ta‘minlashning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, multimedia vositalari, internet, tovushli va video ma‘lumotlar, og‘zaki nutq, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari, intellektual qobiliyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение современных информационных технологий в обучении иностранным языкам, особенности повышения интереса учащихся к науке за счет использования компьютерных средств и программ, а также обеспечения активного общения преподавателя и обучающегося во время обучения.

Ключевые слова: информационные технологии, мультимедийные средства, интернет, звуковые и видео информации, устная речь, навыки самостоятельного мышления, интеллектуальные способности.

Abstract: This article discusses the importance of modern information technologies in teaching foreign languages, the features of increasing students' interest in science through the use of computer tools and programs, as well as ensuring active communication between teacher and student during training.

Keywords: information technology, multimedia, Internet, sound and video information, oral speech, independent thinking skills, intellectual abilities.

Kirish

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining rivojlanishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Insoniyat o‘zining

taraqqiyotida ilm-fan yutuqlarini samarali qo'llash orqali axborot almashish jarayoni takomillashib, axborotlashtirilgan jamiyat shakllanib bormoqda. Bu jarayon bevosita kishilarning hayot tarzi va mehnat faoliyatlariga ham ta'sir ko'rsatib, ularning kompyuter texnologiyalariga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirmoqda. Jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalarida tezkor axborot almashinuviga, dunyo axborot zahiralardan foydalanishga, ta'lim jarayoni va boshqa sohalarni kompyuterlashtirishga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda.

Yurtimizda axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarining jamiyat hayoti va inson faoliyatining barcha sohalariga joriy etish va foydalanish, fuqarolarning axborotga bo'lgan talablarini to'liq qondirish, jahon axborot hamjamiyatiga kirib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va dunyo axborot resurslaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

XXI asr – axborot texnologiyalari asri deb aytilgani bejizga emas. Yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj, axborot savodxonligi va bilimlarni mustaqil ravishda olish qobiliyati yangi turdagi – innovasion ta'limning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bunda axborot texnologiyalariga tizim yaratuvchisi, integratsiya qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. An'anaviy o'qitish usullari o'quvchilarga imkon qadar ko'proq bilim berishga qaratilgan bo'lib, o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchi o'zi tomonidan tayyorlangan va ishlab chiqilgan ma'lumotlarni beradi. Talabalarda uning nuqtai nazari bo'yicha rivojlanishi kerak bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunday o'qitish jarayonida olingan bilimlar, asosan, ensiklopedik xususiyatga ega bo'lib, berilayotgan o'quv materiallari faqat ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda kompyuter texnologiyalarini o'qitish vositasi va ta'lim jarayonini avtomatlashtirish uskunasi sifatida qabul qilish hamda uning imkoniyatlaridan samarali foydalanishga e'tibor qaratish lozim. Chunki ular ushbu usullarning pedagogik, didaktik funksiyalarini to'liq ochib berishda o'ziga xos imkoniyatlarni yaratadi [1,2]. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri bu talabalarining mustaqil ishlarini optimallashtirishdir. Shu bois, ta'lim jarayonida chet tilini o'rganish uchun ajratilgan akademik soatlarning cheklanganligi sababli, talabalar chet tilini o'rganishdagi bo'shliqlarni, asosan, internet global tarmog'idan foydalangan holda mustaqil ishlashlari orqali to'ldirishlari mumkin [3]. Talabalar internetdan foydalangan holda duch keladigan muammolarga yechim topishlari, chet tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, so'z boyliklarini oshirish, o'z fikrlarini sodda va tushunarli tarzda bayon qilish kabi ko'nikmalarni hosil qilishlari mumkin, bu esa o'z navbatida ularning ijodkorligini oshirish imkoniyatini yaratadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda kuzatuv, solishtiruv, tizimli tahlil, sotsiologiyistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar

Chet tillarini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalangan holda o'qituvchining o'z faoliyatini tashkil etishi orqali mashg'ulot jarayonida samaradorlikni oshirishga, mashg'ulot sifatini yuksaltirishga erishish mumkin. Chet tili darslarida turli multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshirishga va nutq faoliyatining barcha turlarini samarali shakllantirishga, shuningdek barqaror mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday usul bilan talabalarning mustaqil fikrlashlari, turli muammoli vaziyatlarda ularning to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishlari uchun zamin yaratiladi.

Chet tillarini o'qitish jarayonida axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ma'lumotlarni yetkazishda bir qator qulayliklar yuzaga keladi.


Jumladan:

- axborotni taqdim etishning turli shakllaridan foydalanish;
- ma'lumotlarni yuqori darajadagi aniqlik bilan ifodalash;
- turli jarayonlarni modellashtirish imkoniyatlari;
- ta'lim oluvchilarga differensial yondashish;
- ta'lim oluvchilarni samarali nazorat qilish va ko'mak berish;
- ta'lim oluvchining faolligini oshirish.

Chet tilini o'qitishda jarayonida o'qituvchi mashg'ulot vaqtida mavzuga oid ma'lumotlarni og'zaki shaklda, doskaga matn yozish yoki turli chizmalarni chizish orqali tushuntirishi mumkin. Biroq mazkur jarayonni ifodalovchi ma'lumotlar tasvirlar, grafiklar, tovushli axborotlar, animatsiyalar, videoroliklar shaklida taqdim etilganda, ular talabalar tomonidan yengil va tushunarli tarzda qabul qilinadi. Shuningdek, bunday shaklda yetkazilgan ma'lumotlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalari o'quv jarayonida o'qituvchi va talaba muloqatini jonlantirish, ularning ehtiyojlarini qulay shakllarda moslashtirish, yuzaga keluvchi muammoli savollarga tez va tushunarli tarzda javob berish imkonini yaratadi. O'quv jarayonida kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanish har bir talabaning shaxsiy intellektual qobiliyatini hisobga olgan holda

ularga yondashish, ularning qiziqishini oshirish va ijobiy motivatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ular o'quv mashg'ulotining mazmuni, shakli va darajasini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Axborot texnologiyalari vositalarining o'quv jarayonidagi rolini ifodalovchi quyidagi tasnifini keltirish mumkin.



Axborot texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga nisbatan tasnifi

Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv materialini taqdim etishning o'ziga xos usullari va xususiyatlariga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir usullariga, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik samaradorligiga, tadqiqot o'tkazish imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, axborot va kompyuter texnologiyalari ta'limdagi an'anaviy texnologiyalarni to'liq almashtirmaydi, ammo ularning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda ulardan foydalanish usullari va yondashuvlarini sifatli joriy etish ushbu texnologiyalarni ishlab chiquvchilarning pedagogik va didaktik xususiyatlardan xabardor bo'lishi bilan bog'liq.

Chet tillarini o'qitishda kompyuter texnikasi vositalari va dasturlaridan foydalanish muayyan maqsadlarni nazarda tutadi. Jumladan, fonetikaning o'rgatishda chet tilidan tovushlarni farqlash ko'nikmalarini shakllantirish, ritmik va intonatsiyali talaffuz qobiliyatlari shakllantirish, artikulyasion talaffuz

qobiliyatlarini shakllantirish kabi jarayonlarida qisqa o'lchamdagi audio va video materiallaridan foydalanish yuqori samaraga erishish omili hisoblanadi. Shuningdek, talabalarda og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirishda bevosita vaziyatlarni ifodalovchi ko'rgazmali multimedia vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uning sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'quv-metodik materiallarni elektron shaklda taqdim etish ta'lim jarayonining samaradorligini yuksaltiradi. Axborot texnologiyalari va kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni tashkil etish orqali uning qiziqarli o'tishiga, berilayotgan ma'lumotning ko'rgazmali va tushunarli tarzda yetkazishga, ularni qulay va yengil o'zlashtirishga, mashg'ulot mobaynida beriluvchi materialning hajmini oshirishga erishiladi. Bu esa albatta, mashg'ulot jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchi orasidagi o'zaro faol muloqatni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / под ред. Е. С. Полат. -М.: Академия, 2002. 224 с.
2. Люляева Н.А. Алгоритмизация обучения иностранным языкам в высшей школе // Проблемы современного педагогического образования. Серия: Педагогика и психология. 2017. № 55 (11). С. 63–72.
3. Анваров А.У. Роль информационных технологий в изучении иностранных языков // Молодой ученый. 2021. № 14 (356). С. 115-117.
4. Акопова, М. А. Компьютерные технологии в иноязычном высшем образовании // Научно-технические ведомости СПбГПУ. 2008. Вып. 5. С. 137-141.